



TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLARDA PSIXOLOG TAVSIYALARI

Qurbonova Muxabbat Mirsadikovna

Toshkent viloyati Chinoz tumani Maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 9-sonli
umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada ta'lim jarayonlarini tashkil etishga psixologik jihatdan yondashuv asoslari va natijalari haqidagi fikrlar yoritilgan. Psixologik xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim jarayoni, o'qituvchilar faoliyati, psixologik yondashuv, pedagogic qobiliyat, ijodiy yondashuv, ijtimoiy psixologik muhit.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda ta'lim oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta o'zlashtirishga ehtiyojni, asosiy o'quvilmay va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lim jarayonlarining asosiy vazifalari sifatida belgilab berdi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni ta'limtarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga



joriy etish zaruriyatini belgilaydi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda jarayonda ishtirok etuvchilarning ijtimoiy-psixologik jihrlarini hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Quyida biz jarayonni sifatli tashkil etish uchun yordam beradigan psixologik tavsiyalarni beramiz. Zero inson ruhiy hotirjam bo'lmasa har qanday faoliyatda xam ko'zlangan marraga yetishi qiyinlashib boraveradi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda e'tiborga olish muhim bo'lgan tavsiyalar;

1. Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda va boshqarishda tarbiyaviy munosabatlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlariniva jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning psixologik xolatini inobatga olish.
2. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish asosida ulaming innovatsion faoliyatini tashkil etish, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ularga qulay shart-sharoitlarni yaratib berish.
3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayoniga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish faoliyat ishtirokchilarini psixologik jihatdan tayyorlash
4. Pedagogik jarayonlarda ta'lim oluvchilaming boshlang'ich tushunchalari va o'zi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish, o'quvchilar faoliyatining tahliliy yo'nalishini, pedagogik tizimni konseptual va dasturiy boshqarishning o'zlashtirilishini amalga oshirishintellektual salohiyatini oshirish.
5. Pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlaming natijalari bo'yicha qayta aloqani yo'lga qo'yish, o'quvchilaming boshlang'ich tushunchalari va tayyorgarlik darajasini aniqlash, innovatsion jarayonlarga ulami oldindan tayyorlash va ilmiy-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash.
6. Pedagogik jarayonlarga yangiliklami tatbiq etish va subyektlaming innovatsion faoliyatini tashkil etishda innovatsiyalaming o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, axbortlar to'plash, ulami tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'zgaruvchan vaziyatlarga ko'ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish.



7. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashda quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish: - maqsadiy samaradorlik - bu pedagogik jarayonlar subyektlari salohiyati, imkoniyatlari va mavjud imkoniyatlarni belgilangan maqsadlarga mos kelish darajasini ifodalovchi xususiyatlar; - ijtimoiy-psixologik samaradorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ta'limiy muhitning holati tavsifi bo'lib, subyektlarning ehtiyojlarini rivojlanishi, ularning yaratilgan shart-sharoitlardan va o'z faoliyatidan qoniqish hosil qilish darajasi; - ta'minot samaradorligi - erishilayotgan natijalarning ilmiy-metodik ta'minotga bog'liqligi; - texnologik samaradorlik - subyektlarning asosiy funksiyalarini amalga oshirilish darajasi, shuningdek, subyektlar faolligini rivojlantirish samaradorligi.

8. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishlarida o'qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni uzluksiz ta'lim tizimida muntazam tashkil etib borish. 9. O'qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda pedagogik va kasbiy qayta tayyorlash jarayonlarida "Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat, samaradorligini oshirish" fanining o'qitilishini joriy etish.

Shu o'rinda ijtimoiy psixologik metodlardan foydalanish ham samaradorlik oshishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik metodlar - pedagogik jarayon subyektlari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bema'lol, erkin harakat qilishi, o'zini o'zi namoyon qilishi, turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun shart-sharoit va ijodiy ta'limiy muhitni yaratishi nazarda tutiladi. Ijtimoiy-psixologik moslashuv - bu subyektlarni ta'limiy muhit ta'siriga moslashuvini nazarda tutadi va uning ma'lum bir guruhdagi qadriyatlar bilan yaqinlashuvi, mazkur yangi muhitdagi ijtimoiy me'yorlarni, an'ana va guruhiy madaniyat elementlarini o'zlashtirishidir. Ijtimoiy-psixologik moslashuv ham kasbiy moslashuv singari ma'lum bir imkoniyatlar darajasida, tashqi muhit ta'sirini o'z ichki dunyosi, kechinmalari doirasida o'z maqsad va ehtiyojlariga moslashtirib olishiga va psixik jarayonlariga bevosita bog'liq. Psixik jarayonlar - bu ob'yektiv olamni sub'yektiv



aks ettirishning turli shakllaridir. Psixik jarayonlar psixik funktsiyalar deb ham aytiladi. Psixik jarayonlarning asosiy turlari sezgi, idrok, xotira, tasavur, xayol, tafakkur, nutq, hissiyot, iroda bo'lib, ular o'z navbatida uch guruhga birikadi: bilish jarayonlari, irodaviy jarayonlar, hissiy jarayonlar. Psixologik holatlar - psixik faoliyatning vaqtinchalik dinamikasi bilan tavsiflanadi. Bu inson ichki dunyosining muhim tomoni bo'lib, faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Psixik holatlarga charchash (toliqish), emotsional zo'riqish (stress), monotoniya va boshqa psixik holatlar kiradi va bular o'zaro bog'liq bo'ladi. Shunday qilib ta'lim samaradorligini oshirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy psixologik xolati, ruxiyati va kayfiyati aloxida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.T. Turg'unov. L.A. Maqsudova. Va boshqalar: “Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari” Toshkent-2014
2. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5 4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020).
3. Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India. 5